



## Ma'ktabgacha ta'lim yoshidagi aqli zaif bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish

**Bozorboyev Javlon**

Jizzax Davlat Pedagogika universiteti Maxsus

pedagogika kafedrası stajyor o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi aqli zaif bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uning istiqbollari fikrlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda respublikamizda amaldagi ta'lim tizimi bolalarni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib borishga yo'naltirilgan mustaqil fikrlashni pedagogik texnologiyalarga qiyoslash orqali bolalarni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga, hamda aqli zaif bolalarni oila a'zolarining roli borasidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zilar:** psixoterapevtik jarayon, stress, pedagog - defektolog, pedagogik muloqot ijodkor, Passiv fe'l, ruxiy holat, tashabbuskor, emotsional holat.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируется использование современных педагогических технологий в обучении умственно отсталых детей дошкольного возраста. Также в статье действующая система образования в нашей республике помогает детям развивать навыки самостоятельного мышления. освещены педагогические технологии, идеи развития умственных способностей детей, а также роль членов семьи умственно отсталых детей.

**Ключевые слова:** психотерапевтический процесс, стресс, педагог-дефектолог, творческое педагогическое общение, Пассивный глагол, психическое состояние, инициатор, эмоциональное состояние.



**Annotation** In this article, the use of modern pedagogical technologies in the education of mentally retarded children of preschool age is scientifically analyzed. Also, in the article, the current educational system in our republic helps children to develop independent thinking skills. By comparing independent thinking with pedagogical technologies, the ideas on the development of children's mental abilities, as well as the role of family members of mentally retarded children are highlighted.

**Key words:** psychotherapeutic process, stress, pedagogue - defectologist, creative pedagogical communication, Passive verb, mental state, initiator, emotional state.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni psixologik tashxis qilishda tadqiqot o'tkazuvchi mutaxassis bola bilan ishlash jarayonida o'zaro munosabat o'rnatish, diqqatni belgilangan vazifaga qaratish, bu yoshdagilarning toliqishi va vaziyatga moslasha olmasligi, shu bilan birga, bolalar bilan test o'tkazish vaqtida hulq-atvor reaksiyasini kengligi kabi qiyinchiliklarga duch keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni va boshlang'ich sinf o'quvchilarini psixologik rivajlanishini aniqlashda shunday sharoitlar yaratish kerakki, unda bola o'zining imkoniyatlarini eng yuqori darajada namoyon qilsin. Maxsus metodik usullar yordamida bolaning nafaqat psixik rivojlanishining muxim darajasi, balki uning yaqin kelajak taraqqiyot zonasining tadqiq qilish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, bolalar uyida, yaqinlari bilan muloqotda, o'yin paytida namoyon qiladigan imkoniyatlarni kamdan-kam hollarda tashxis tadqiqotlarda, vaqt tig'iz hollarda (boladan tez javob berishini talab qilishini sezganda) yoki begona muhitda namoyish etadilar. Bolaning aqliy rivojlanish darajasini baholash uchun uning o'yin faoliyatini kuzatish juda foydali. 4-10 yoshli bola tekshirishga o'zining eng sevimli o'yinchog'i bilan kelishi mumkin, bunga to'sqinchilik qilish kerak emas. Aksincha, psixologik tekshirishga kelgan bolaning sevimli o'yinchog'ini maqtab, uning iltifotiga osonroq erishish mumkin. Tadqiqot jarayonida bolalar hulq-atvor reaksiyasining juda katta chegarasini ko'rsatadilar. Tadqiqotni o'tkazish jarayoniga psixofiziologik va ijtimoiy omillar bilan bir qatorda psixologning kasbiy ko'nikmalari ham ta'sir etadi. Maktabgacha muassasalarga qatnaydigan bolalar "katta yoshdagi begona kishiga"



bo'ysunishga o'rganib qolganlar va test o'tkazish jarayonida yaxshi natijaga erishadilar. shunday holatlar ham bo'ladikiy, "uy bolalari psixolog- tashxisidan emotsional qulay holatni yaratib berishni talab qiladi. Bolalar bilan ishlash jarayonida turmush sharoitlari omillaridan qorin ochish, chanqash, hojatga borish, burun qoqish va boshqalami e'tiborga olish zarur. Ayrim bolalar bulami aytilishga uyaladi. Bunday holatlar bolada nafaqat jarayonga. hatto psixologga nisbatan ham qabul qilmaslik hissini yuzaga keltirishi mumkin. Bu holatdan chiqish uchun tadqiqotni o'yin honasida o'tkazish, bolalami o'yinchoqlar bilan qiziqtirish kerak. Aslida bolani yangi xonaga, yangi odamlarga moslashtirish zarur bo'lganda, tadqiqot o'tkazish o'yin xonasidan foydalani mumkin. Psixologik tadqiqotni qiziqarli o'yinchoqlar, rasmlar va bezaklar unchalik ko'p bo'lmagan joyda o'tkazish kerak. Xona yorug', qulay va shinam bo'lishi, lekin unda yorqin rangdagi, o'ziga jalb etuvchi predmetlar ko'p bo'lmasligi kerak. Bola psixologning bunday xonasiga kirganda, uning ko'zlari har tarafga qarashni boshlaydi va test vazifasini bajarishda diqqatini bir joyga jamlashi qiyin bo'ladi. Test vazifalarini bajarishda bolaga oson bo'lishi uchun o'quv qo'llanmadagi metodikalar va testlar rangli, qiziqarli ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. 4 yoshdan 10 yoshga bo'lgan bola juda tez rivojlanadi va qisqa muddat ichida maktabgacha yosh davridan o'quvchilik davrigacha muntazam vazifalar yuklatilgan bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Biz 4-5 yoshli, 5-6 yoshli va 6-7 yoshli bolalarni tashxis qilishda turlicha yondoshishni tavsiya qilamiz. 4-5 yoshli bolalarda hulq-atvorning ijtimoiy mativlari maktabga tayyorgarlikni boshlagan 6 yoshli bolalarga qaraganda unchalik rivojlanmagan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining faqatgina o'quv faoliyatida emas, balki hulq-atvorida ham o'z-o'zini nazorat qilish tizimi ma'lum darajada shakillangan bo'ladi. Ayrim 4, hatto 5 yoshli bolalar birinchi marta tashxis tekshiruvdan o'tayotgan bo'lsalar, ota-onalaridan ajralishdan qo'rqadilar. Massalan, bola xonaga onasisiz kirgisi kelmayotgan bo'lsa, u holda onasining tashxisda ishtirok etishiga ruxsat berish kerak. Ona o'zining ishtiroki bilan bolani tinchlantiradi, uning qo'lidan ushlab turishi mumkin, lekin dastlab onani tekshiruv jarayoniga aralashmaslik haqida ogohlantirish kerak. Defektolog va oila hamkorligining samarali usullari. Bola tarbiyasi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiyaning asosiy o'chog'i esa oiladir. Oilada bola tarbiyasiga e'tibor haqida fikr yuritilar ekan, shu dargoxda nogiron farzand tarbiyasiga g'amxo'rlik aloxida o'rin egallashi muhim



va nozik masala ekanini nazardan qochirmaslik lozim. Oila bola uchun bir vaqtning o'zida eng erta va eng muddatli ijtimoiy aloqa manbaidir. Oilada bolaning asosiy ruxiy xolatlari vujudga keladi, bunda bolaning rivojlanishi jarayonida atrofdagi insonlar tasiri katta ahamiyatga ega. Nogiron bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar faqatgina oxirgi o'n yillikda ularning oilaviy muammolariga ahamiyat kasb eta boshlashdi. Oilada nogiron bolaning tug'ilishi bilan kelib chiqadigan muammolar quyidagi holatlar bilan ifodalanadi.

- Hayot davrining o'zgarishi;
- Kuchli stress, kasal bola "odam"ning tug'ilishi;
- Surunkali "mudroq" stress, bu xayot davomida kuchayib borishi natijasida kelib chiqadi va oilani shunga moslashtiradi;
- Dastlabki nazorat funktsiyalarining vaqtinchalik buzilishi;
- Qo'shimcha moddiy og'irlik;
- Kelajakda bolaning rivojlanishiga ko'zi yetmasligi;
- Ijtimoiy mavqening susayishi va oila doirasida ish faoliyatining qisqarishi;
- Oilaviy munosabatlarning buzilishi;
- Ona bilan bolaningbirga yashashini uzaytirish.

Shuni tushunish kerakki, nafaqat ota-ona bolagatasir ko'rsatadi, balki bola hamularni o'zgartiradi. Ayniqsa, bu yordamga muxtoj bolalarga tegishlidir. Bunday bola tug'ilishi bilan ota-ona ko'pgina yangi, odatlanmagan bilim va ko'nikmalarni o'rganishi kerak, hayot rejalari, dunyoqarashlarini qayta ko'rib chiqishi kerak. Kasal bolani to'g'ri rivojlanishi va tarbiya ko'rishi uchun oilada bolaning holatiga nisbatan adekvat ko'nikma hosil qilish juda muximdir. Bolaning yaqinlari unga biz yashayotgan dunyoga nisbatan ko'nikma xosil qilishiga yordam berishlari va o'zlari xam bunga o'rganishlari kerak. Oila bolani qabul- qilishi va tushunishi kerak. Ko'pchilik ota-onalar esa bola bilan qanday munosabatda bo'lishni bilishmaydi. Bu esa ota-ona tomonidan xaddan tashqari g'am ho'rlikka va aksincha umuman befarqlikka olib keladi. Mazkur xolatlarda mutaxassis oilaga yordam ko'rsatib, ota-onalarga bolasi xususiyatlari xaqida to'liq malumotni beradi. Uning



o'ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlari, ayniqsa, kuchli va zaif jixatlarini ko'rsatadi. Oilada birlikni va bolaga nisbatan barcha talablarning kelishilganligini saqlab qolish muxim. Kelishilgan ta'sir, umumiy yondashish, uning ko'nikma va qobiliyatlarini ijtimoiy to'g'ri keladigan xulq-atvorini tezroq takomillashtirishga yordam beradi. Bolalar ota-onalariga taqlid qilishga urinadilar. Shuning uchun otaonalarining turli yondashishlari, ayniqsa ikkalasidan birining qo'polligi emotsional stressni yuzaga keltiradi. Orastalik, o'z-o'ziga xizmat qilish, oilada qo'ldan kelgancha ish qilish, yaqinlari haqida g'amho'rlik qilish qo'nikmalari borasidagi talablarning pasayishiga imkon boricha yo'l qo'ymaslik kerak. Ota-onalar bolaning asab sistemasini avaylaydigan va shu bilan bir vaqtda mustahkamlaydigan muxofaza qiluvchi tartibni tashkil qilish kerak. Tartib bola va 65 ota-onalarni keraksiz harakatlardan ozod qiladi. Zaruriy odatlar asta-sekin shakllanadi, shuning uchun ularni tartibga rioya qilish shart-sharoitlarida uzoq va qunt bilan ishlab chiqish kerak. Ota-onalarning o'z bolasi tug'ilishidan boshlab rivojlanishini faol va muntazam kuzatib turishlari muxim, biz o'z vaqtida mutaxassislar bilan maslaxat qilish lozim bo'lishi bola xususiyatlariga e'tibor qaratishga yordam beradi. Kundalikda kuzatishlarni va samarali bo'lib chiqqan usullarni qayd qilib qo'yish foydali. Bu bolaga o'zini tanqidiy baxolashga yordam beradi. Bolani atrofdagi olamni o'rganishga, insonlar bilan muloqot qilishga o'rgatish kerak. Bolani ular uchun tabiiy bo'lgan sharoitlarda atrofdagi olamning turli xil xodisalari bilan tanishtirish lozim. Go'dakning nafaqat savollariga javob berishga, balki muloxaza qilishga o'z va boshqaning harakatlarini baholashga gapirib berishga undashadi. Bunday tarbiya jarayonida bolada idrok qilish faoliyati, diqqat-etibori, fikrlash, xotira, nutq, kerakli ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Bolalarning butun faoliyati emotsional qiziqishlar bilan olib borilishi kerak. Bola bilan o'yinda ona uning xarakatlariga izoh beradi, iboralarni bir qancha variantlarda, turli kommunaktiv ko'rsatishlarda (xabar qilish, savol berish, undash, inkor qilish) takrorlaydi. Oilada aqli zaif bolani tarbiyalash quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

- Bolaning yosh va individual xususiyatlariga to'g'ri keladigan ruhiy rivojlanishini muntazam ravishda to'g'irlab borish.
- O'qitish va muxofazalovchi tartib uchun yaxshi sharoitlar yaratish.
- Bolaning ota-ona bilan bo'lgan emotsional ijobiy, narsalarga oid amaliy va nutqiy o'zaro tasirini shakllantirish. Bu bolaning ijtimoiy moslashuviga va patologik xulq-atvor stereotipi shakllanishini



oldini olishga yordam beradi. To'g'ri tarbiya yondashuvi mezon bo'lib bola va boshqa oila azolaridagi psixofiziologik qulaylik xolati xizmat qilishi mumkin. Mutaxassislarning oila bilan ish olib borishida quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatish ijobiy samara beradi:

1. Oilaviy o'zaro munosabatlarning uygunlashuvi.
2. Ona ruxiy holatini to'g'irlash.
3. Bolaning ota-onalar bilan munosabatlarini to'g'irlash.
4. Bola imkoniyatlariga aynan baho berishda yordam ko'rsatish (jismoniy hamda psixologik).
5. Uy sharoitida bola bilan mashg'ulot o'tkazish uchun zaruriy hisoblangan maxsus to'g'irlash va uslubiy usullarga onani o'qitish.

Bola shaxsiyatini to'g'irlash uchun zaruriy hisoblangan maxsus tarbiyaviy usullarga onani o'qitish. Shu yo'nalishlarga tayangan holda pedagog - defektolog quyidagi vazifalarni hal qiladi.

1. Bola yutuqlarida o'z mehnati natijalarini ko'rish imkoniyatiga ko'ra onaning shaxsan o'z-o'ziga baho berishini oshirish.
2. Onaning ichki psixologik holatini to'g'irlash. Bolaning ruhiy, jismoniy nuqsoni bilan bog'liq bo'lgan kechinmalar asta-sekin bola imkoniyatlarining anglanishiga kichik yutuqlaridan quvonishga o'tishi kerak.
3. O'z bolasi bilan o'zaro ta'sirida bo'lish jarayonida psixolog yordamida uni o'qitishga va tarbiyalash jarayonida ona shaxsiyatni o'sishini amalga oshirish, onaning bola dardiga kuyunish pozitsiyasidan imkoniyatlarini qo'llashning ijodiy qidiruvchi pozitsiyasiga o'tishi.

Bolaga nisbatan ona bilan qo'llaniladigan ta'lim-tarbiya jarayonining o'zo'ziga bo'lgan psixoterapevtik jarayonga o'zgarishi, bolasiga qaratilgan onaning ijodiy faoliyati uni psixologik stressini salbiy ta'siridan davolab, uning o'ziga yordam beradi. 5. Mutaxassis va ota-onaning o'zaro xamkorligi aynan onaga o'ta uzoq muddatli stressda salbiy ichki psixologik holatini, o'z ko'rsatma va qadriyatlarini qayta tuzishga yordam beradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Defektologiya asoslari” fanidan o‘qitish materiallari to‘plami J.D.Bozorrboyev-Paxtakor - 2022 yil
- 2 “Umumiy pedagogika” B.X.Xodjayev -Toshkent-2017
3. “Pedagogik atamalar lug'ati” Toshkent-2008
4. Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta- maxsus ta'lim muassasalari uchun darslik. T.: "Istiqlol", 2006 y.
5. Dergunskaya V.A., Koshkina A.A., O'yinlar - maktabgacha tarbiyachilar bilan tajriba: O'quv-uslubiy yordam - Moskva, Ustoz ta'limi markazi, 2013